

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINING 33 YILLIGI — MILLIY DAVLATCHILIGIMIZNING TARIXIY BOSQICHI SIFATIDA

Muhammadqodirova Gulbahor Umarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filalogiya fakulteti

O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 206-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 yillik tarixiy taraqqiyoti, uning davlat boshqaruvi, jamiyat hayoti, inson huquqlari, demokratik institutlar shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya orqali amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlar milliy davlatchilikni takomillashtirishda qanday ahamiyat kasb etayotgani ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Konstitutsiya, islohot, inson huquqlari, davlat, jamiyat, referendum, suverenitet, adolat, qonun, siyosiy tizim, mustaqillik, yoshlar siyosati, fuqaro, modernizatsiya, demokratiya, parlament, jamiyat.*

THE 33RD ANNIVERSARY OF THE CONSTITUTION OF UZBEKISTAN — AS A HISTORICAL STAGE OF NATIONAL STATEHOOD

Abstract: *This article analyzes the 33-year historical development of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its impact on state governance, social life, human rights, and the formation of democratic institutions. It also highlights, on a scientific basis, how the political, legal, and social reforms carried out through the new edition of the Constitution play a significant role in improving national statehood.*

Keywords: *Uzbekistan, Constitution, reform, human rights, state, society, referendum, sovereignty, justice, law, political system, independence, youth policy, citizen, modernization, democracy, parliament, community.*

33-Я ГОДОВЩИНА КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКИСТАНА — КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ЭТАП НАЦИОНАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Аннотация: *В данной статье анализируется 33-летнее историческое развитие Конституции Республики Узбекистан и её влияние на государственное управление, общественную жизнь, права человека и формирование демократических институтов. Также научно рассматривается, какое значение имеют проводимые*

через новую редакцию Конституции политические, правовые и социальные реформы для совершенствования национальной государственности.

Ключевые слова: *Узбекистан, Конституция, реформы, права человека, государство, общество, референдум, суверенитет, справедливость, закон, политическая система, независимость, молодежная политика, гражданин, модернизация, демократия, парламент, сообщество.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy davlatchiligimizning huquqiy poydevorini tashkil etuvchi, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo‘lini belgilab berdi. Oradan 33 yil o‘tib, ushbu hujjat nafaqat tarixiy ahamiyat kasb etib, balki mamlakat modernizatsiyasining muhim yo‘riqnomasi sifatida o‘z dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, 2023-yilda Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi uning umuminsoniy qadriyatlar, adolat va inson huquqlariga sodiqligini yanada mustahkamladi. Mustaqillikka erishganidan so‘ng, O‘zbekiston uchun yangi huquqiy tizimni shakllantirish zarurati paydo bo‘ldi. Mazkur jarayonda milliy qadriyatlar, inson huquqlarining ustuvorligi, jamiyatda demokratik tamoyillarni qaror toptirish masalalari o‘z aksini topdi. Konstitutsiya o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy o‘ziga xosligi va rivojlanish strategiyasini mujassamlashtirgan holda ishlab chiqildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 33 yilligi milliy davlatchilik taraqqiyotining muhim tarixiy bosqichidir. Ushbu davr ichida mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotida tub islohotlar amalga oshirildi, inson huquqlariga oid kafolatlar mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa O‘zbekistonning modernizatsiya va taraqqiyot strategiyasini aniq belgilab, davlat va jamiyat o‘rtasida mas‘uliyatli hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bois Konstitutsiyaning 33 yilligi nafaqat tarixiy sana, balki kelajakni belgilovchi siyosiy-huquqiy voqelikdir.

METADALOGIYA

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 33 yilligi mamlakatimizning mustaqillik davrida bosib o‘tilgan ulkan tarixiy yo‘lning yorqin timsolidir. 1992-yilda qabul qilingan Bosh qonun xalqning asriy orzu-intilishlarini mujassam etib, milliy davlatchiligimizning qonuniy asoslarini yaratdi. Konstitutsiya orqali O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining mustaqil modelini belgiladi, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari ustuvorligi, fuqarolarning tengligi va erkinligi davlat siyosatining markaziga qo‘yildi. 33 yil davomida ushbu hujjat nafaqat davlat boshqaruvining huquqiy poydevori, balki jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiya qilishda bosh yo‘riqnama sifatida xizmat qilib kelmoqda. 33 yil davomida Konstitutsiyamiz

jamiyat rivoji bilan uyg‘un holda muntazam yangilanib bordi. Xususan, oxirgi yillarda olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida davlat boshqaruvi tizimi liberallashtirildi, parlament va mahalliy kengashlarning roli kuchaydi, fuqarolarning huquqiy himoyasi yanada mustahkamlandi. 2023-yilgi referendum orqali yangilangan Konstitutsiya “Inson — jamiyat davlat” tamoyilini bosh mezon sifatida belgilab, inson huquqlari bo‘yicha kafolatlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasining Konstitutsiyaga kiritilishi ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, mehnat munosabatlari kabi sohalarda davlatning majburiyatlarini yanada aniq va chuqur qilib belgilab berdi. Yoshlar, oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar hamda kam ta’minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarildi. Konstitutsiya qabul qilingan davrdan boshlab mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ular quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

1-Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish: hokimiyatlar bo‘linishi tamoyili takomillashtirildi, parlament vakolatlari kengaytirildi, mahalliy boshqaruv tizimida oshkoralik kuchaytirildi.

2-Sud-huquq tizimining isloh qilinishi: sudlarning mustaqilligi ta’minlandi, odil sudlov kafolatlari kuchaytirildi.

3-Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish: nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati erkinlashtirildi, ommaviy axborot vositalari erkinligi kengaydi.

4-Inson huquqlari masalasi: xalqaro inson huquqlari standartlarini joriy etish, ularning amalda ta’minlanishini kuchaytirish bo‘yicha keng qamrovli choralar ko‘rildi.

Konstitutsiyaning tarixiy ahamiyati shundaki, u davlat hokimiyati tarmoqlarining o‘zaro muvozanatini belgilab berdi, mustaqil sud hokimiyati, kuchli fuqarolik jamiyati va erkin iqtisodiy munosabatlar tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Mustaqillikning dastlabki davrida siyosiy barqarorlikni ta’minlash, yangi qonunchilik tizimini yaratish, davlat tuzilmasini qayta shakllantirish kabi murakkab masalalar aynan konstitutsiyaviy tamoyillar asosida hal qilindi. Bugun O‘zbekiston erishgan ko‘plab yutuqlar: bozor iqtisodiyotiga o‘tish, xalqaro aloqalarning kengayishi, milliy madaniyat va ma’naviyatning tiklanishi, davlat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralikning kuchayishi bularning barchasi Konstitutsiya ta’siri bilan ro‘yobga chiqarilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, u mustaqil davlatimizning siyosiy-huquqiy hayotida tub burilish yasagan, xalq irodasini ifoda etuvchi bosh hujjat sifatida e’zozlanadi. 2025-yilda Konstitutsiyamizning 33 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanmoqda. Ushbu sana nafaqat muhim tarixiy voqea, balki milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevorini barpo etish yo‘lidagi izchil islohotlar

ramzidir. Konstitutsiya qabul qilingan davr mustaqillikning ilk yillari bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda keskin o‘zgarishlar kechayotgan murakkab jarayonlar bilan xarakterlangan. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 33 yilligi milliy davlatchiligimizning tarixiy bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega sanadir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy hayotida tub burilish yasagan, xalq irodasini aks ettirgan va davlatimizning demokratik taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan bosh hujjat bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. 33 yil davomida Konstitutsiya O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashda muhim poydevor bo‘ldi. Mustaqillikning ilk yillarida qabul qilingan ushbu hujjat mamlakatni demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb e‘lon qilgan holda, hokimiyatning bo‘linishi, qonun ustuvorligi, fuqarolar tengligi kabi tamoyillarni mustahkamlab qo‘ydi.

2023-yilda Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tganini bildiradi. Yangilangan hujjatda:

- 1-inson qadr-qimmatini eng oliy qadriyat sifatida belgilandi;
 - 2-ijtimoiy davlat tamoyili mustahkamlandi;
 - 3-ta‘lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya kabi sohalarda davlat majburiyatlari kengaytirildi;
 - 4-ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyot kabi zamonaviy masalalar konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarildi;
 - 5-yoshlar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari kuchli himoya ostiga olindi.
- Mazkur o‘zgarishlar Konstitutsiyaning bugungi globallashuv jarayonlarida ham dolzarbligini saqlashini ta‘minlaydi.

NATIJALAR

Bugungi kunda Konstitutsiya nafaqat tarixiy hujjat, balki zamonaviy davlat barpo etishning bosh tamoyilidir. Uning qabul qilinganiga 33 yil to‘lishi milliy davlatchiligimizning mustahkamlanishi, demokratik institutlarning rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Konstitutsiya O‘zbekistonning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va milliy manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy kafolatdir. U jamiyatning siyosiy barqarorligi, fuqarolik jamiyati shakllanishi va davlatning ochiqligi hamda adolatli boshqaruv tizimini ta‘minlovchi poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois Konstitutsiyaning 33 yilligi mamlakatning mustaqil taraqqiyot yo‘lida erishilgan yutuqlarni yana bir bor yodga olish, yangi O‘zbekistonni barpo etish borasidagi harakatlarni mustahkamlash va kelajak taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda muhim siyosiy-ma‘naviy ahamiyat kasb etadi. 33 yil mobaynida Konstitutsiya jamiyatning yangi ehtiyojlari va global jarayonlar bilan uyg‘unlashgan holda muntazam ravishda takomillashtirildi. Eng yirik o‘zgarishlar 2023-yilda umumxalq referendumini orqali amalga oshirilgan bo‘lib, unda

Konstitutsiyaning 65 foizdan ortiq qismi yangilandi. Yangi tahrirda inson qadrini oliy qadriyat sifatida tan olish, ijtimoiy davlatni shakllantirish, mulkni daxlsiz deb bilish, adolatli sud tizimi, shaffof boshqaruv, ekologik xavfsizlik, yoshlar manfaatlari, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari kabi tamoyillar yanada aniqroq ifodalandi. Bu islohotlar O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tganini, davlat siyosati markazida inson va uning farovonligi turganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda Konstitutsiya mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida fundamental o‘rinni egallab, har bir fuqaroga o‘z huquqlarini ta‘minlashda mustahkam kafolat vazifasini bajaradi. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, davlat xizmatini isloh qilish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ayollar va yoshlar faolligini oshirish kabi keng qamrovli dasturlar ham Konstitutsiya belgilagan tamoyillarga asoslanadi. Shu ma‘noda, uning 33 yilligi mamlakatning ertangi taraqqiyotiga ishonch, mustahkamlik va yangilanishga intilish timsolidir. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 33 yilligi nafaqat tarixiy sana, balki milliy o‘zlikni anglash, davlatchiligimiz poydevoriga bo‘lgan hurmat va e‘tirof ramzi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. U mustaqillik g‘oyalarining huquqiy mujassami bo‘lib, bugungi va kelajak avlod uchun adolatli va farovon jamiyat qurish yo‘lidagi bosh mezon bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev Sh. O‘zbekiston Konstitutsiyasi va davlat boshqaruvi. Tashkent: Huquq, 2015.
2. Toshmatov I. Milliy davlatchilik va huquqiy tizim. Tashkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Qodirov B. O‘zbekiston mustaqillik yillari: siyosiy-huquqiy rivojlanish. Tashkent: Sharq, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Konstitutsiya islohotlari va jamiyat taraqqiyoti. Tashkent, 2023.
5. Mirzaev, A. Davlat va jamiyat: zamonaviy huquqiy tamoyillar. Tashkent: Adabiyot, 2019.